

Lobar Kuzimurodova

O`zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining

Filologiya va tillarni o`qitish (rus tili) fakulteti 2102-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Odil Yoqubovning “ Ulug`bek xazinasi” romanidagi asosiy mavzularni, asarning yozilish jarayonini va hayratlanarli voqealarni o`z ichiga oladi . Bu romanda ko`tarilgan mavzular hozirgi kunda ham dolzarbliji bilan ham yosh kitobxonlarimizning qo`lidan tushmayapti. Bu asar tarixiy faktlar shu bilan birga badiiy yondashilgan holda yaratilgan durdona asardir . Shuningdek bu maqolada yozuvchimiz Odil Yoqubovning hayoti va ijodi haqida ham qisqacha yoritib o`tiladi.

**Kalit so`z :** Odil Yoqubov, Do`stlik, El-yurt hurmati, orden, Zuhal, Mushtariy, motivatsiya.

**Annotation:** This article contains the main themes of Odil Yaqubov's novel *Ulugbek Khazinasi*, the process of writing the work, and surprising events. The topics raised in this novel are still relevant even today, and our young readers are reading unstoppably. This work is a masterpiece created with historical facts and an artistic approach. Also, in this article, the life and work of our writer Odil Yakubov will be briefly covered.

**Key words:** Odil Yakubov, Friendship, Honor of the country, order, Zuhal, Mushtari, motivation.

**Аннотация:** В данной статье собраны основные темы романа Одила Ягубова «Улугбек Хазинаси» (Сокровище Улугбека), процесс написания произведения и удивительные события. Темы, поднятые в этом романе, актуальны и сегодня, и наши юные читатели могут себе их позволить. Это произведение представляет собой шедевр, созданный с использованием исторических фактов и художественного подхода. Также в этой статье будет кратко освещена жизнь и творчество нашего писателя Одила Якубова.

**Ключевые слова:** Одил Якубов, Дустик, Честь страны, орден, Зухал, Муштари, мотивация.

O`zbekning buyuk yozuvchilaridan biri Odil Yoqubov 1926-yilda Qozog`istonning Turkiston tumanidagi Qarnoq qishlog`ida ziyoli oilada tug`ilgan. Adimiz hozirgi Millliy universitetni tamomlagan. Adabiyotda dastlab hikoya yozish bilan boshlagan adibimiz asta sekinlik bilan qissa va romanlar yozishni boshlaydi. "Tengdoshlar" – Odil Yoqubovning ilk qissasi bo`lib 1951-yilda e`lon qilingan. "Dastlabki qadam" (1953), „Ikki muhabbat“ (1955) hikoyalar to`plami, „Tilla uzuk“ (1961) qissa va hikoyalar to`plamida muhabbatni insonga xos ulug‘, muqaddas xislat sifatida tasvirlaydi. „Muqaddas“ qissasida (1960) yozuvchining chinakam yozuvchiga xos uslubi va yo`li namoyon bo`ldi. „Er boshiga ish tushsa...“ romani (1966) ikkinchi jahon urushi davridagi front orqasidagi hayot, mehnat qahramonliklari, xalqimizning vatanparvarligi va mardligi haqida. „Bir felyeton qissasi“

(1961), „Qanot juft bo‘ladi“, „Matluba“ (1970) qissalari va ko‘pgina hikoyalarida yoshlarning turmushda yuz bergen ziddiyatlarga qarshi mardonavor kurashi, muhabbati tasvirlangan.

Özbekiston xalq yozuvchisi, "Döstlik " hamda "El-yurt hurmati " ordeni sohibi -Odil Yoqubov ózining beqiyos qiymatga ega asarlari bilan xalqimizning suyukli ijodkori sifatida nom qozongan . Adib birgina "Ulugbek xazinasi"nomli romani bilan "Respublika davlat mukofoti sohibi"deb ta`riflangan . Shu paytga qadar zamonaviy mavzuda qalam tebratgan adib endi hayolan tarixiy sahifalarni izlashga tushdi . Ko`pgina tarixiy hujjatlarni, Ulug`bekning hayotiga oid manbaalarni sinchikovlik bilan o`qib o`rganadi .Dastlab adib Ulug`bek kutubxonasining fojeali tarixi haqida qissa yozmoqchi bo`ladi, ammo bu mavzuni kengroq yoritish uchun ijodini davom ettiradi va qissani romanga aylantiradi. "Ulug`bek men uchun o`rta asrning atoqli olimi bo`lgani uchungina emas , balki xalqlarimiz tarixidagi eng og`ir fojeani boshidan kechirgan alloma bo`lganligi uchun ham ulug`dir"-degan edi mashhur adibimiz Chingiz Aytmatov . Birinchi marotaba bu kitobni 9-sinfda òqib yurgan kezlarim òqigan edim . Rus sinfda òqiganligim bois özbek adiblarining asarlarini kamdan-kam òqir edim .Bu roman özbek adabiyotini sevib òqishimga sababchi bølgan . Adibimiz romandagi qahramonlarning hayot tarzini gavdalantiribgina qolmay ularga qayta hayot bergandek jonlantirgan . Asarda buyuk bobokolonlarimizning real obrazi gavdalantirilgan . Mirzo Uluğbek bobomizning har sohada yetuk bilim sohibi ekanligi va hatto-ki hozirgacha butun yer yuzida -ham astranom ,ham adolat ila davlatni boshqargan podshoh sifatida ta`rif etilishi insonni beihtiyor fahrlantiradi .Sòzimning dalili sifatida meni ta`sirlantirgan kitobdagagi jumlalarni keltirib òtmoqchiman:

" - Deydilarkim , falakda yarqirab turğon behisob sitoralar orasida ikki yulduz mavjud emishkim,ular yaqinlashgonda bashariyat taqdirini burmoqqa qodir buyuk insonlar dunyoga kelur er mishlar .Bu sitoralarning nomi ne?Sòngi ikki ming yil davomida ular necha marotaba yaqinlashganlarva bu saodatli daqiqalarda qaysi ulug` zotlar tavallud topmishlar ? Shunda 8 yoshli Uluğbek yana boyagiday yuragi gup-gup urib ,javob berdi :

-Siz aytgon saodatli sitoralarning nomlari Zuhal va Mushtariydur. Ular har sakkiz yuz yilda bir marotaba yaqinlashadur . Binobarin , sòngi ikki yarim ming yilda ular uch marotaba yaqinlashgandur . Birinchi bor yaqinlashganda buyuk jahongir Iskandar Zulqarnayn tavallud topmish . Ikkinci bor yaqin kelganlarida payğambarimiz Muhammad alayhissalom dunyoni munavar qilmush , uchinchi bor yaqinlashganlarida ersa mani bobom fotihi muzaffar sohibqiron Amir TemurbKòragoniy hazratlari dunyoga saodat keltirmish ."

Bu misralar har bir o`zbek farzandining qalbida ajdodlarga bølgan faxr, iftixon tuyğusini uyğotadi desam yanglishmagan bølaman.Bu asarda Ulug`bekning qanchalik ilmlii inson bo`lganligiga va ilmga bo`lgan e`tibori qanchalik yuksak bo`lganligini , u tashkil etgan rasadxonasi va undagi nodir xazinalaridan amin bo`lishimiz mumkin.Mutafakkir bobomizning keljak avlodlar uchun meros qilib qoldirgan oltinga teng Ajdar g`origa yashirilgan xazinalari biz va butun jahon ilmiga ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki bu roman o`z ichiga : tarbiyaviy,ilmiy , tarixiy,siyosiy jihatlarini olgan holda xalqimizning suyukli asarlaridan biri bo`lib qoldi

desam adashmagan bo`lamiz. Bugungi kunda yoshlarimiz mana shunaqa tarixiy faktlarga boy asarlarni ko`proq o`qishsa bobokalonlarimizga bo`lgan faxr va iftixon tuyg`usi yanada shakllanadi va ularga haqiqiy motivatsiya bo`la oladi deb o`ylayman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

O.Yoqubov Ulug`bek xazinası  
Mirvaliyev.S. O`zbek adiblari – Yozuvchi 2000yil  
Xudoyberganov N. Parvoz davom etadi. Toshkent, G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.